



KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH UMUMMILLIY VAZIFA VA VIJDON ISHIGA AYLANSAGINA, JAMIYATDA BARQARORLIK MUHITI SHAKLLANADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 5-mart kuni Korruptsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig‘ilishida ishtirok etdi. Yig‘ilishda yurtimizda korruptsiyadan xoli muhit yaratish bo‘yicha qilingan ishlarga baho berilib, kelgusi vazifalar belgilandi.



Davlatimiz rahbari o‘z nutqida korruptsiya islohotlar yo‘lidagi eng katta to‘siq va g‘ov ekanini ta’kidladi.

Shu bois, so‘nggi yillarda bu illatga qarshi kurashish bo‘yicha qonunlar qabul qilinib, yangi tizim yaratildi. Parlament palatalarida mas‘ul qo‘mitalar, Korruptsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi va Agentlik tashkil qilindi.

Eng muhimi, jamiyatda korruptsiya muammosini jamoatchilik muhokamasiga olib chiqadigan ochiq tizim, ochiq muhit yaratildi. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalarining bu boradagi o‘rni va ta’siri ortib bormoqda.

Avvalo, korruptsiyaning omillariga qarshi kurashilmoqda. Masalan, yerni hokim qarori bilan ajratishdan to‘liq voz kechib, auktsion tizimiga o‘tkazilgani natijasida bu tizim xalqchil bo‘ldi. “Shaffof qurilish” dasturi joriy etilganidan keyin bu sohada ham ijobiy o‘zgarishlar sezildi.

Davlat xaridlari bo‘yicha qonun qabul qilingani, tanlov va tender raqamlashib, sog‘lom raqobat bo‘lgani uchun o‘tgan yili 14 trillion so‘m budget mablag‘i tejaldi.

Bugunga kelib, barcha banklar 100 million so‘mgacha maishiy kreditlarni inson omilisiz 5 daqiqa ichida onlayn beryapti. Natijada oldin bu ish bilan shug‘ullangan minglab bankirlar endi mahallaga tushib, odamlarga loyiha, kredit taklif qilib, mijozini ko‘paytirish bilan ishlayapti.

Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida 10 dan ortiq xizmat turlari to‘liq elektron shaklga o‘tkazildi. Bu sohada murojaatlar soni 2,5 karra kamaydi.

Oliy ta’lim tizimi ham raqamlashtirildi. Avval test topshirib, to‘plagan baliga qarab, keyin oliyog‘hni tanlash joriy qilindi. 35 turdagi hujjatlarni inson omilisiz olishga o‘tilgani uchun sohadagi murojaatlar 2,2 baravar kamaydi.

Yo‘l harakati xavfsizligi inspektori “bodi-kamera”da xizmat o‘tayotgani, avtoraqamlar auksionda sotilayotgani, qog‘ozdagi bayonnoma yo‘q bo‘lgani uchun korruptsiya omillari keskin kamaydi.

Aholi va tadbirkorlarga “xalq xizmatidagi davlat” tamoyili asosida xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi. Xususan, 120 turdagi hujjatlarni talab qilish, 160 dan ortiq litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi. Natijada 200 mingga yaqin yangi tadbirkorlar bozorga kirib keldi. Chet el ishtirokidagi korxonalar qariyb 5 karra oshib, 23 mingga yaqinlashdi.

Elektron davlat xizmatlari soni 15 karra ortib, 721 taga yetdi, ulardan foydalanuvchilar esa 11 milliondan oshdi.

Eng muhimi, bular orqali aholi, tadbirkorlar, xorijiy hamkorlarimiz, xalqaro tashkilotlar va investorlarning islohotlarga ishonchi mustahkamlandi. So‘nggi yetti yilda 120 milliard dollardan ortiq investitsiya kirgani, iqtisodiyotimiz 2 karra o‘sis, o‘tgan yili 115 milliard dollarga yetgani buning isboti.

Prezident korruptsiyaga qarshi kurashish doimiy jarayon ekanini aytib, bu boradagi dolzarb masalalarni va kelgusi vazifalarni ko‘rsatib o‘tdi.

Huquq-tartibot idoralari, asosan, korruptsiyani aniqlash va jazolash bilan ishlab,

korruptsiyaviy omillarni tag-tomiri bilan yo‘qotadigan preventiv choralar e‘tiborsiz qolayotgani qayd etildi.

Shu bois, Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligining ish uslubi o‘zgartirilishi belgilandi. Buning uchun tajriba tariqasida 5 ta — Sog‘liqni saqlash, Qurilish, Suv xo‘jaligi vazirliklari, “O‘zbekneftgaz” va “O‘zsvta‘minot” aksionerlik jamiyatlarining kompayens nazorati agentlikka o‘tkazildi.

Shuningdek, tumanlar darajasiga tushib, maishiy va tizimli korruptsiya omillarini chuqur o‘rganadi. Tahlillar asosida aniq choralarni ishlab chiqib, Milliy kengashga taqdim etadi.

Korruptsiyaviy jinoyatlarning 75 foizi tuman va mahallada maishiy korruptsiya shaklida sodir etilyapti. Shu bois, endi Korruptsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlari tarkibi to‘liq yangilanadi. Ularga viloyat xalq deputatlari kengashi raislari bosh bo‘ladi.

Hududiy kengashlar korruptsiyaviy omillarni aniqlab, ularga barham berish uchun qonunchilikni o‘zgartirish, jazo muqarrarligini ta’minlash bo‘yicha Milliy kengashga taklif kiritadi.

Bundan sakkiz yil avval hududlarni kompleks rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan edi. Bu tizim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishga ko‘maklashdi. Shu bilan birga, so‘nggi yillarda hududlar salohiyati oshdi.

Shu bois, endi prokuror, ichki ishlar va soliq rahbarlari sektorlar faoliyati bilan shug‘ullanmasligi belgilandi. Jinoyatchilikning

oldini olish, unga qarshi kurashish bo‘yicha qo‘shimcha vazifalar qo‘yildi.

Davlat xaridlarida korruptsiyaning oldini olish masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. Shu maqsadda Ekspert komissiyasi tuzildi. Ilg‘or tajriba asosida davlat xaridlarida tovarlarning o‘rtacha bozor narxlarini ko‘rinib turadigan elektron platforma yaratildi. Bunda davlat xaridlarida sotib olinadigan tovar va xizmatlar narxi o‘rtacha bozor narxidan ko‘pi bilan 20 foizdan oshmasligi shart. Ushbu talabni buzganlik uchun qonun bilan javobgarlik va jarimalar joriy qilinadi.

Budget va budgetdan tashqari mablag‘ hisobidan asosiy vositalarni xarid qilish bo‘yicha talablar ham kuchaytirilishi belgilandi. Davlat idoralarining xaridlarida mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan transport va mebelga ustuvorlik berish zarurligi qayd etildi. Yirik loyihalarni yuqori darajadagi korruptsiyaga qarshi standartlardan kelib chiqib baholash talabi qo‘yildi.

Korruptsiyaning oldini olish davlat xizmatiga professional va fidoyi kadrlarni tanlash hamda ularni “halollik vaksinasi” bilan emlashdan boshlanadi. Shu bois, ishga olishdagi tartib va yondashuvlarni takomillashtirish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Davlat xizmatchilari daromadini deklaratsiyalashga oid qonun zarurati qayd etilib, uning loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilishi belgilandi.

Fikri toza, korruptsiyaga toqatsiz yangi avlodni tarbiyalash maqsadida ta’lim

maskanlarida halollik g‘oyalarni singdirish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash muhimligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Davlatimiz rahbari nutqida jamoatchilikka murojaat qilib, korruptsiyaga qarshi kurashish umummilliy vazifa, har bir vatanparvar yurtidoshimizning vijdon ishi ekanini ta’kidladi.

— Hammamiz yagona kuch bo‘lib harakat qilsak, albatta, katta ijobiy samaraga erishamiz. Shu bois, mahalla faollari, nuroniyalar, ziyolilar, yozuvchi va shoirlar, san‘at va madaniyat xodimlari, tadbirkorlar, taniqli shaxslar, rahbarlar, deputat va senatorlar — umuman, butun jamoatchilik birlashib, korruptsiyaga “jamiyat tanasidagi saraton” sifatida qarashi kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yig‘ilishda parlament va hukumat a‘zolari, jamoatchilik vakillari bilan muloqot bo‘ldi. Umuman, ilk marotaba bunday tarzda yig‘ilish o‘tkazilishi korruptsiyaga qarshi kuchli siyosiy irodani namoyon etdi.

Davlatimiz rahbari 55 ta aniq maqsadga yo‘naltirilgan tashabbuslarni ilgari surdi. Ular doirasida 5 ta qonun, 12 ta farmon va qarorlar ishlab chiqiladi. Korruptsiyaga qarshi kurashishda parlament, Milliy va hududiy kengashlar, fuqarolik jamiyati institutlarining roli oshiriladi.

Korruptsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari kuchayadi. Deklaratsiyalash, noqonuniy boylik o‘rttirishga oid yangi tartiblar kiritilishi natijasida korruptsiya omillari cheklanadi.

Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi, tashkilotlardagi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati kuchaytiriladi.

Maishiy korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha vazirlik, idoralar rahbarlari mas‘uliyati oshiriladi. Davlat xizmatlari sifatini aholi baholaydigan tizim yaratiladi, eng yomon ko‘rsatkichga ega soha rahbarlari bo‘yicha chora ko‘riladi.

Nazorat inspeksiyalari mustaqilligi oshiriladi. Yirik investitsiya loyihalarida, auktsionlarda korruptsiyaning oldini oluvchi mexanizmlar joriy etiladi.

Davlat xaridlari tartibga solinishi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xaridlar cheklanishi hisobiga budget mablag‘lari tejallishi ta’minlanadi. Davlat pulini maqsadsiz sarflash holatlariga barham beriladi. Sektorlardan ozod bo‘lgan kuch va vositalar jinoyatchilikka qarshi kurashishga safarbar etilib, jamiyatda barqarorlik muhiti va odamlarning roziligi ortadi. Noqonuniy tekshiruvlar ustidan prokuror nazorati kuchaytirilishi orqali joylarda biznes va investitsiya muhiti yaxshilanadi.

Erishilgan natijalar xalqaro reytinglarda mamlakatimiz o‘rmini yaxshilaydi. 2027-yilda UNCAC konferensiyasi mezbonligiga O‘zbekiston nomzodini ma’qullash uchun zamin hozirlaydi.

Eng muhimi, aholining, ayniqsa, yoshlarning huquqiy ongi yuksaltirilib, jamiyatda korruptsiyaga qarshi kurashishga daxldorlik shakllanadi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON – SHHT: ISHONCH VA SHERIKLIK TAMOVILLARI ASOSIDAGI HAMKORLIK YANADA KENGAYTIRILADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 5-mart kuni mamlakatimizda tashrif bilan bo‘lib turgan Shanxay hamkorlik tashkiloti bosh kotibi Nurlan Yermekbayevni qabul qildi.

Ushbu nufuzli tashkilot doirasidagi ko‘p tomonlama sheriklikni rivojlantirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Barqarorlik va xavfsizlikka tahdid solayotgan umumiy xavf va xatarlarga qarshi kurashishda amaliy sa’y-harakatlarni kengaytirish, yaxshi qo‘shnchilik, ishonch va sheriklik tamoyillari asosida hamkorlikni yanada chuqurlashtirish muhim ekani ta’kidlandi.

Samarqand sammitida boshlangan SHHT faoliyatini modernizatsiya qilish jarayonini davom ettirish, jumladan, tashkilotning barcha tuzilmalari faoliyati samaradorligini oshirishga alohida e‘tibor qaratildi.

“Yangi iqtisodiy muloqot”ni rivojlantirish konsepsiyasi va mamlakatimizning boshqa qator tashabbuslarini amalga oshirish zarurligi qayd etildi. Bular savdoni soddalashtirish to‘g‘risidagi bitim, elektron tijorat dasturi, investitsiyalarni rag‘batlantirish kompleksi, logistikada raqamlashtirish rejasini, “SHHT kelajak texnologiyalari” dasturi, Oziq-ovqat xavfsizligi atlasini va boshqalarni qabul qilishdir.

Shuningdek, Xitoyning Tyanszin shahrida bo‘lajak SHHT sammitiga tayyorgarlik ko‘rish masalalari muhokama qilindi.

O‘ZA

GRUZIYA BILAN ALOQALAR FAOLLASHGANI MAMNUNIYAT BILAN QAYD ETILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda rasmiy tashrif bilan bo‘lib turgan Gruziya Bosh vaziri Irakliy Kobaxidze boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuv avvalida oliy martabali mehmon davlatimiz rahbariga Gruziya Prezidenti Mixail Kavelashvilining salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Savdo-iqtisodiyot, investitsiya, transport-logistika, turizm va madaniyat sohalaridagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Parlamentlar va hukumatlar darajasidagi aloqalar faollashgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi. 2024-yilda o‘zaro tovar ayirboshlash 50 foizga oshdi, qo‘shma korxonalar soni va yuk aylanmasi hajmi ko‘paydi. Poytaxtlar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviareyslar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda gruziyalik investorlar ishtirokida tashkil etilgan raqamli bank faoliyati yuritilmoqda. Gumanitar yo‘nalishda o‘tgan yili Tbilisi shahrida O‘zbekiston madaniyati va kinosi kunlari muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

Subhat davomida shu kunlarda Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig‘ilish yakunlari yuksal baholandi.

Tovar ayirboshlash sur‘atini saqlab qolish, eksport va import mutanosibligini ta’minlash, sanoat kooperatsiyasi loyihalarini ilgari surish, transport-tranzit salohiyatidan samarali foydalanish, shuningdek, ikki mamlakat hududlarini iqtisodiy hamkorlikka faol jalb qilish bo‘yicha o‘zaro muvofiqlashtirish choralar ko‘rish muhimligi qayd etildi.

Raqamlashtirish va turizm infratuzilmasini rivojlantirish borasidagi sheriklik va almashinuvlarni kengaytirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish maqsadida kelgusida O‘zbekiston va Gruziya hukumatlari darajasida yaqindan hamkorlik qilishga kelishib olindi.

O‘ZA

KORRUPSIYA – JAMIYAT TANASIDAGI SARATON

Kuni kecha Korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengash yig‘ilishidagi Prezidentimiz nutqi barchamizni bu illatga qarshi kurashda milliy safarbarlikka chaqirdi, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero, korruptsiyaga qarshi kurashish har bir sof vijdonli inson, demokratik jamiyat va davlatning muqaddas burchidir.

Korruptsiya hatto eng qudratli va eng kuchli davlatlarni ham jar yoqasiga olib kelgani insoniyat tarixidan ma’lum. U insoniyatga, iqtisodiyotga zarba beradigan, qonun ustuvorligini buzadigan va xalqning davlat siyosatiga ishonchini keskin susaytiradigan, demokratik institutlar rivojiga to‘sqinlik qiladigan xatarli tahdid hisoblanadi.

Hozir korruptsiyaning dunyo miqyosidagi zarari 3 trillion dollarga yaqin miqdorni tashkil qilmoqda.

Masalaning favqulodda dolzarbligidan kelib chiqib, davlatimiz rahbari yurtimizda korruptsiyadan xoli muhit yaratish bo‘yicha qilingan ishlarga baho berdi, kelgusi vazifalarga alohida to‘xtalib o‘tdi.

Bundan 7-8 yillar avval, achchiq bo‘lsa ham tan olib aytilish joiz, tug‘uruqxonada bola tug‘ilishidan, qo‘pol bo‘lsa ham, vafot etgunicha bo‘lgan jarayonlar korruptsiyalashgan bir ko‘rinishga kelgan edi.

Davomi 2-beta



2025-yil 6-mart, 46-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz



Kun mavzusi

JARAYON

YANGI

O'ZBEKISTON

KORRUPSIYA – JAMIYAT TANASIDAGI SARATON

Boshlanishi 1-betda

Bolani FHDYOda ro'yxatdan o'tkazish uchun ham tanish-bilish qidirardik. Undan keyin bu illat farzandingizni bog'chaga joylashdan boshlab, maktab, institut, ishga joylashish, qo'yingki, pensiya olishgacha davom etardi. Shu darajada qon-qonimizga singib ketganidan bu oddiy holga aylanib ulgurani sezmay ham qolgandik.

Ayniqsa, ta'limdagi korruptsiya millat taraqqiyotiga kushanda bo'lib, korruptsiyaviy yo'l bilan o'qishga kirgan bo'lajak vrachlar ko'lidan bemorlar bevaqt vafot etishi, bo'lajak muhandislar dastidan binolar qulashi, bo'lajak iqtisodchilar tufayli budjet pullari talon-taroj bo'lishi, huquqshunos sudya, prokurorlar ko'lidan esa adolat aziyat chekishi hech gap emasdi.

Mana shunday tahlikali bir vaqtda davlatimiz rahbari korruptsiyaga qarshi ayovsiz kurashni boshladi. Avvalo, korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha huquqiy asoslar yaratildi, parlament palatalarida mas'ul qo'mitalar, korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash va korruptsiyaga qarshi kurash bo'yicha agentlik, barcha davlat idoralarida komplayens va samaradorlikni baholash reyting tizimlari yo'lga qo'yildi.

Qonunchilik hujjatlarini korruptsiyaga qarshi ekspertiza qilish tartibi, korruptsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni, korruptsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyotlari tasdiqlandi. Aholi va davlat xizmatchilarining korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirishga qaratilgan Korruptsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi joriy etildi.

Korruptsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning ochiq elektron reyestri joriy etilmoqda. Korruptsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligini reyting baholash tizimi, ushbu reyting baholashni mustaqil amalga oshiruvchi ekspertlar guruhi tarkibi, Korruptsiyaga moyil

bo'lgan munosabatlar elektron reyestri shakllantirildi.

Tadqiqotlarga ko'ra, korruptsiya omillari sifatida byurokratiya va inson omili, kambag'allik va ishsizlik, iqtisodiy va matbuot erkinligi cheklangani, ochiqlik va shaffoflik yetishmasligi, gender tengsizlik, mulk huquqi himoyalanganligi, ta'lim sifati pastligi kabilar keltirib o'tilgan.

Davlatimiz rahbarining qat'iy siyosati tufayli ushbu omillar ildizini qirqish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi.

So'nggi yillarda iqtisodiyotimiz 2 karra o'sgani, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad 3 ming dollarga yetgani, maktabgacha ta'limda qamrov 74 foizdan, oliy ta'limda esa 39 foizdan oshgani, hech shubhasiz, tarixiy natijadir.

Kambag'allikni qisqartirish umummilliy harakatga aylandi. Kambag'allik darajasi keyingi yillarda 23 foizdan 8,9 foizga tushdi, uni qisqartirish bo'yicha 32 ta yo'nalishda yangi yondashuvlar joriy etilmoqda.

Gender tenglik bo'yicha alohida qonunlar, O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi qabul qilindi. Parlamentda ayollar ulushi 32 foizdan 38 foizga o'sdi. Yangi saylangan mahalliy kengash deputatlarining 32,6 foizi xotin-qizlarni tashkil etib, avvalgi chaqiriqdagidan 9 foiz yuqori bo'ldi.

Korruptsiya kushandasi jamoatchilik nazorati ekanidan kelib chiqib, ushbu illatni ochiq gapirishga oid qo'rquv bartaraf etildi. Uni bartaraf etish vositasi inson omili va byurokratiyani qisqartirish hisoblanadi. Shu maqsadda davlat xizmatlarini ko'rsatishda raqamlashtirish juda katta ko'lamda amalga oshirilmoqda.

Yerni auksionga chiqarish, "Shaffof qurilish" dasturi joriy etilishi, davlat xaridlari bo'yicha qonun qabul qilinishi, tanlov va tenderlar raqamlashtirish, sog'lom raqobat muhiti yaratilishi, kreditlarni daqiqalarda olish, mahalla bankiri tushunchasi paydo

bo'lishi, ta'lim tizimidagi xizmatlar to'liq elektron shaklga o'tkazilishi, oliy ta'lim muassasalari soni keskin ko'payishi, o'qishga kirish jarayonlari ustidan onlayn jamoatchilik nazorati o'rnatilishi, to'plagan baliga qarab oliygohni tanlash tizimlari, yo'l harakati nozirlari faoliyatini kameralarda kuzatib turish imkoniyati kabilar odamlarning kundalik turmushida korruptsiyaning ildiziga bolta urdi.

Tanlov va tenderlar raqamlashtirish, sog'lom raqobat bo'lgani uchun o'tgan yili 14 trillion so'm budjet mablag'i tejalgani, minglab bankirlar endi mahallaga tushib, odamlarga loyiha, kredit taklif qilib, mijozini ko'paytirish ustida ishlay boshlagani, maktabgacha va maktab ta'limi tizimida 10 dan ortiq xizmat turi to'liq elektron shaklga o'tkazilishi natijasida bu sohada murojaatlar soni 2,5 karra kamaygani, 120 turdagi hujjatlarni talab qilish, 160 dan ortiq litsenziya va ruxsatnoma bekor qilingani o'z natijasini yaqqol ko'rsatmoqda.

Bugunga kelib, barcha banklar 100 million so'mgacha maishiy kreditlarni inson omilisiz 5 daqiqa ichida onlayn bermoqda. Natijada 200 mingga yaqin yangi tadbirkor bozorga kirib keldi. Chet el ishtirokidagi korxonalar qariyb 5 karra oshib, 23 mingga yaqinlashdi.

“

Korruptsiyaga qarshi kurash umummilliy vazifamizga aylansagina, halollik, shaffoflik kundalik madaniyatimizning tarkibiy qismi bo'lib, korruptsiyaning ildiziga suv quyadigan befarqlikni bartaraf eta olsakgina, ushbu illatni tag-tomiri bilan qo'porib tashlashimiz mumkin. Binobarin, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, butun jamoatchilik birlashib, korruptsiyaga "jamiyat tanasidagi saraton" sifatida qarashi kerak. Shu tariqa barchamiz yagona kuch bo'lib harakat qilsak, albatta, yanada katta ijobiy samaraga erishamiz.

Mulohaza



HAR BIR AMALIMIZ ME'YORIDA BO'LSIN

YOXUD ISROF QILIB,

HASRAT-NADOMATGA BURKANMAYLIK

Ramazon xayr-ehson, sabr-matonat va qut-baraka oyidir. Duolar ijobat bo'ladigan ushbu ulug' oydan musulmon ahli unumli foydalanishi, savobli amallarni ko'paytirishi kerak. Ajdodlarimiz doim bahorni ko'tarinki kayfiyatda qarshi olgan. El hasharga chiqqan, miskinlarga ko'mak berilgan. Bu yil Ramazon va bahorning bir vaqtda kelishi bizning go'zal amallarimiz ikki hissa oshishiga xizmat qiladi, albatta. Bunda, avvalo, ehson egalari tejamkorlikni mahkam tutib, haqiqiy haqdorlarga saxovat ko'rsatsa, ayni muddao bo'lardi.

Mahmudxo'ja Behbudiy 1915-yilda "Oyina" jurnalida bunday yozgan edi: "To'y va ta'ziyaga' sarf qilindatugon ogchalarimizni biz, turoniylar ilm va din yo'lig'a sarf etsak, anqarib ovruptoyilardек tarqo'y etimiz va o'zimiz-da, dinimiz-da bora'y va rivoj topir. Yo'q, hozirgi holimizg'a davom etsak, din va dunyog'a zillat va miskinatdan boshqa nasibamiz bo'lmaydur".

Kuyinchalik bilan aytilgan bu gaplarga ham yuz yildan oshdi. Afsuski, jamiyatimizda hamon o'sha illatlar to'la barham topgani yo'q. Isrof va dabdabaga bahona izlab turadigan odamlarimiz yo'q emas. Biror sabab bo'lsa-yu, to'kib-sochsak. Achinarlisi, buni mahalla-ko'y gapirishi, soddaga aytdigan, maqtanish uchun qilamiz. Hatto haj va umraga borib kelganlarni kuzatish, kutib olish dabdabaga, shouga aylanayotganini sira oqlab bo'lmaydi.

Shariatimizda har bir narsani me'yorida qilish tavsiya etiladi. Bir narsa juda oshirib ham yuborilmaydi va aksincha, juda yo'q darajaga ham tushirib qo'yilmaydi. Balki o'rta me'yorida ado etiladi. Me'yordan oshirib yuborishga isrof deb qaratiladi.

Alloh taolo Isro surasida bunday marhamat qiladi: "(Baxillik qilib) qo'lingizni bo'yningizga bog'lab ham olmag. (Isrofgarchilik qilish bilan) uni butunlay yoyib ham yubormang! Aks holda, malomat va mahrumlikda o'tirib qolursiz!" (Isro surasi, 29-oyat).

O'rtaacha, mo'tadil turib, xasislik ham, isrof ham qilmasdan molini Alloh taolo aytganidek, shariat ko'rsatganidek tasarruf qilsa, Alloh taolo

uning sadaqasi, xayr-ehsonining o'niga bandasi kutmagani tomondan yana boshqa ne'matlar ato etib, barakasini beradi.

Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning hayotlari ham mo'tadillikka asoslangan edi. U zot hech qachon ummatlarini og'ir mashhaqqatli ibodatlariga buyurmas, balki ba'zi amillar ummatga farz bo'lib qolishidan xavf qilib, u amallarni gohida tash qildirdilar. Payg'ambarimizning sunnatlari oson va yengil, mashaqqatsiz bajariladigan amallar edi. U zot alayhissalom ummatining eng zaif toifalarini ham e'tiborga olib yo'l tutardilar. Zaif toifalardan sog'lom, kuch-quvvatga to'lganlarning vazifalarini talab qilmasdilar. Shunga ko'ra, ushbu oydagi fitorliklarni ham isrof va riyoadan xoli holda ixcham qilib o'tkazishimiz lozim bo'ladi.

Mamlakatimiz qonunchiligida to'ylarda isrof va dabdababozlikka qarshi kurash choralari ko'rilgan. Milliy urf-odatlarimizning ko'rki sanalgan to'y-hashamlarni o'tkazish yuzasidan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Bunda to'y-olay, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar o'tkazilishini tartibga solishda ijtimoiy adolat va qonuniylik, milliy urf-odat va qadriyatlariga sodiqlik, boshqa din va millat vakillarining urf-odatlarini hurmat qilish hamda jamoatchilik fikrini inobatga olish tamoyillariga rioya etish nuqtayi nazaridan yondashilgani quvonarli.

Davlatimiz rahbari ko'p marta ushbu illatlar haqida to'xtalib, bunday degan: "Ochig'ini aytadigan bo'lsak, to'y-hashamlar bilan bog'liq ortiqcha xarajatlar ming-minglab oilalarning

Hozir pensiya yoshiga to'lishi bilan fuqaroga proaktiv shaklda pensiya tayinlanishi belgilandi, buning uchun fuqaro hech qanday tashkilotga murojaat qilishi shart emas. Avvallari bunga oylab vaqt ketardi.

Yig'ilishda davlatimiz rahbari korruptsiyaga qarshi kurashning yangi yaxlit tizimini batafsil tushuntirib berdi, haftalik, oylik, choraklik, yillik ishlar aniq belgilab olindi. Bunda parlament, ijro va sud organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ilmiy va ta'lim muassasalarining vazifalari aniq mustahkamlandi.

Yangi tizimga asosan, endilikda tizimli ravishda jinoyatchilikka qarshi kurashish haftaliklari yo'lga qo'yiladi, parlamentdagi mas'ul qo'mitalar mahallagacha tushib, har bir jinoyatning kelib chiqish sabab va omillarini aniqlaydi, tuman, viloyat prokurorlari va ichki ishlar boshliqlarining oldiga aniq vazifa qo'yadi.

Prokuror va ichki ishlar vaziri har chorakda milliy kengash oldida, viloyat, tuman prokurorlari va ichki ishlar boshliqlari esa har oyda hududiy kengashlarda hisobot beradi va jamoatchilikka murojaat bilan chiqadi. Murojaatda har bir soha va jinoyatchilik turi bo'yicha oldini olish, omillarini bartaraf etish borasida aniq qiladigan ishlari aytiladi.

Milliy kengash har oyda tuman va shaharga tushib, o'z yig'ilishini bevosita ichki ishlar bo'limlarida o'tkazadi. Har haftada prokuror va ichki ishlar boshlig'i bilan hududdagi vaziyatni muhokama qilib boradi.

Milliy kengashda har chorakda Bosh prokuratura, Ichki ishlar, DXX akademiyalari, yuridik va jamoat xavfsizligi universitetlarining hisobotlari eshitiladi.

Senat kamida 1 ta hududda jinoyatchilikni keskin qisqartirish bo'yicha, Qonunchilik palatasi esa kamida 1 ta sohada korruptsiyaga barham berish bo'yicha takliflar berib boradi.

Davlatimiz rahbari yig'ilishda mahalliy kengash raislari bundan buyon korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy kengashlarga raislik qilishini taklif etgani mahalliy kengashlarga bo'lgan yuksak ishonch va ulkan mas'uliyat hisoblanadi.

Yig'ilishda Prezidentimiz mahalliy kengash deputatlari oldiga 2 ta muhim vazifani qo'ydi.

Birinchidan, mahalliy kengashlar joylarda har oyda prokuror, ichki ishlar rahbari hisobotini eshitib, hududlarda korruptsiyaga qarshi kurash tizimining samarali ishlashini qat'iy nazoratga olishi, ikkinchidan, hokimlarning lavozimga qo'yilishidan oldin korruptsiyaning oldini olish bo'yicha aniq rejasini chuqur tahlil bilan eshitishi lozim bo'ladi.

Albatta, biz — deputatlar ushbu vazifalarga o'ta jiddiy yondashib, "mahallabay", kerak bo'lsa, "fuqarobay" korruptsiyani keltirib chiqaradigan omillarni aniqlashimiz, ularga barham berish, buning uchun qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha tinimsiz qat'iy ishlashimiz zarur.

Xulosa qilib aytganda, korruptsiyaga qarshi kurash umummilliy vazifamizga aylansagina, halollik, shaffoflik kundalik madaniyatimizning tarkibiy qismi bo'lib, korruptsiyaning ildiziga suv quyadigan befarqlikni bartaraf eta olsakgina, ushbu illatni tag-tomiri bilan qo'porib tashlashimiz mumkin. Binobarin, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, butun jamoatchilik birlashib, korruptsiyaga "jamiyat tanasidagi saraton" sifatida qarashi kerak. Shu tariqa barchamiz yagona kuch bo'lib harakat qilsak, albatta, yanada katta ijobiy samaraga erishamiz.

Sakinaxon SAIDG'OZIYEVA, Xalq deputatlari Toshkent shahri kengashi deputati

Munosabat

MUSOBAQA VAQTIDA KO'ZIMGA FAQAT BAYROG'IMIZ KO'RINADI

Oilamizda sportchilar bo'lmagan. Onam maktabda o'qituvchi, otam tumandagi elektr tarmoqlari korxonasining oddiy ishchisi edi. Afsuski, otam yutuqlarim, baxtli kunlarimni ko'ra olmadi. Boisi, endigina sportga qadam qo'rgan vaqtlarimda avtohalokat sabab vafot etdi. To'rt farzand onam bilan qoldik. Sharoitimiz ancha og'ir kezlar. O'shanda 6-sinfda o'qir edim. Maktabimizda o'tkazilgan katta marafonda g'olib bo'ldim.



Dilshoda USMONOVA, yengil atletika bo'yicha Osiyo chempioni, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori

meni yanada ulkan marralar sari chorlaydi. Ayni paytda katta mas'uliyat ham yuklaydi. Hozir Andijon davlat pedagogika institutining jismoniy madaniyat fakultetida tahsil olayman. Shu paytgacha ko'p bor O'zbekiston va Osiyo rekordini yangilashga erishdim. To'xtab qolmasligim shart. Shu bois, oldimga katta maqsadlar qo'yganiman. Avvalo, 2028-yilda bo'lib o'tadigan Olimpiada o'yinlariga litsenziyani qo'lga kiritishim, keyin o'qishimni magistraturada davom ettirishim kerak.

Prezidentimiz bugun biz, g'alabaga erishayotgan sportchilarga katta ishonch, umid bilan qarayapti. Sportga qiziqishni oshirish, o'z ustimizda ishlashimiz uchun barcha sharoit yaratib berilgan. Bundan oqilona foydalanib, o'zim o'qigan maktabda sport to'garaklarini yanada rivojlantirishga ahd qildim. Tug'ilib o'sgan qishlog'imda yengil atletika bo'yicha jazzi sportchilarni, rekordchilarni tarbiyalashga hissa qo'shsam, ular yuksak marralarni zabt etsa deymam.

So'zim yakunida Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga munosib ko'rgani uchun, avvalo, Prezidentimizga rahmat aytaman. Bildirilgan ishonchni oqlashga so'z beraman. Qolaversa, yutuqlarga erishishimda menga dalda bo'lgan mehribon murabbiyim va onajonimdan cheksiz minnatdorman. Bunday baxtiyor yoshlik, alohida e'tiborga javoban O'zbekiston degan nomni ulug'lash uchun bor kuchimni ayamayman. Zero, vatanim nomini, shonini ulug'lash aks farzandlik burchim, sharafrimdir.

Viloyatimiz tarixida yengil atletika bo'yicha Osiyo miqyosida oltin medalga sazovor bo'lgan yagona sportchi ekanim



Ushbu hadisda har bir mo'min banda alohida ahamiyat berishi, hech qanday isrofga yo'l qo'ymasligi lozim bo'lgan to'rt buyuk ne'mat haqida so'z yuritilmoqda.

Keragidan ko'p qilinib, ortib qolgan taomlar tashlab yuborilishi, ziyofat va marosimlar dabdabali, serchiqim bo'lishi ham ayni paytdagi isrofning ko'rinishlaridan biridir. Buning o'miga mahalladagi nochor yashayotgan bir faqir oilaning kam-ko'stini to'ldirish, o'qish pulini to'lay olmayotgan talabalarga yordam berish, o'g'lini uylandirish uchun mablag' topa olmagani bor oilaning mushkulini oson qilish, qarzini to'lay olmayotganga ko'makchi bo'lish mumkin.

Bugungi kunda to'y marosimlarimizda haddan tashqari dabdababozlik, manmanlik va isrofgarchiliklar avj olmoqda. Mana shu narsa aksar oilaviy mojarolar, urush-janjallar, ajralishlar, qudalar o'rtasidagi sovuqchilik va hokazo salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Ba'zilar bu ishlarni shaxsiy deb biladi. "Pulni o'zim topdim, qanday sarflashni o'zim bilaman" qabilida ish tutadi. Holbuki, to'y-ma'raka faqat shaxsiy ish emas, balki ijtimoiy masala hisoblanadi. Shunday ekan, bu borada o'zboshimchalik qilish jamoatchilikka nisbatan hurmatsizlik sanaladi.

Islomda nikoh to'yi ziyofati va umuman, bironvaga nikoh berish marosimlaridan asosiy maqsad hotjatmand kishilarni taomlantirish, ularning ko'nglini ko'tarishdir.

Mashhur sahoba Abu Hurayra roziyallohu anhu bunday deganlar: "Taomning eng yomoni boylar chaqirilib, kambag'allar chaqirilmaganidir" (Imom Buxoriy, Imom muslim va Imom Abu Dovud rivoyati).

Yuqorida aytib o'tilganlardan ma'lum bo'lmoqdaki, isrofgarchilik yakka shaxslar uchun ham, oilalar uchun ham o'ta zararli ijtimoiy illat. Uning zarari bu dunyo bilan chegaralanib qolmay, oxiratga ham o'tadi. Xulosa qilib aytamizki, dabdababozlik, riyokorlik, isrofgarchilik kabi xunuk ishlardan saqlanaylik! Bu illatlarga qarshi birgalikda kurashib, oila davrasida, jamiyatda odamlarni yaxshilikka chaqirib, yomon ishlardan qaytarish burchimiz ekanini unutmaylik.

Alloh taolo barchamizni isrofgarchilikdan saqlab, mol-u dunyolarimizni O'zi rozi bo'ladigan joylarga sarflashni nasib aylasin!



Xalqaro hamkorlik

O'ZBEKISTON VA O'MON

XOTIN-QIZLAR tadbirkorligini

qo'llab-quvvatlashda YANGI TANDEM

Yurtimiz xotin-qizlari tadbirkorlikni ancha yaxshi uddalaydi. Bu ularda oiladagi tejamkorlik, moliyaviy masalalardagi faollik, xarajatlarni to'g'ri taqsimlash ko'nikmalari orqali shakllangan. Keyingi yillarda ular bu imkoniyatini jamiyatda faol namoyon etib boshladi. Mamlakatimizda ayollar tadbirkorligi uchun qulay muhit yaratildi, biznes sohasida xotin-qizlar ulushi ortib boryapti. Kichik korxonalardan tortib, katta kompaniyalargacha boshqarayotgan tadbirkor ayollar xorij bozorlariga ham chiqmoqda.

Bu jarayonda ularga ko'maklashayotgan davlat tashkilotlari, mutasaddilar xotin-qizlar tadbirkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, amaliy yordam berishga katta e'tibor qaratyapti. Shu yil 25-28-fevral kunlari O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi boshchiligidagi O'mon Sultonligining Masqat

shahriga uyushtirilgan xizmat safarida ham ayollar tadbirkorligiga keng urg'u berildi. Safar doirasida yurtimizdan 25 tadbirkor ayol O'monda bo'lib, turli iqtisodiy tadbirlar, xususan, O'zbekiston va O'mon ayollarining birinchi biznes-forumida ishtirok etib qaytdi.



Davron VAHOBOV, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi raisi:

— Safardan ko'zlangan asosiy maqsad ikki davlat tadbirkorlari o'rtasida yangi hamkorlik aloqalarini o'rnatish, tajriba almashish va savdo-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarini o'rganishdan iborat edi. O'zbekiston mahsulotlarini tanishtirish va eksport imkoniyatlarini muhokama qilish, mamlakatning ishbilanmon doiralari va davlat tashkilotlari bilan biznes uchrashuvlar o'tkazish diqqat markazimizda bo'ldi. Ko'proq ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, hamkorligini kengaytirish, yangi biznes sheriklar topishiga ko'maklashishga e'tibor qaratildi.

O'mon Sultonligi bilan diplomatik munosabatlarni yangi bosqichga chiqayotir. Shu yil 24-fevral kuni davlatimiz rahbari O'mon Sultonligi tashqi ishlar vaziri Badr bin Hamad al-Busaidini qabul qildi. O'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish, eng avvalo, savdo-iqtisodiy va investitsiya-moliyaviy sohalardagi sheriklik salohiyatini ro'yobga chiqarish masalalaridagi amaliy ishlar tobora faollashib boryapti. Bu aloqalar, o'z navbatida, ikki tomon uchun ayollarning tadbirkorlik sohasidagi salohiyatini ro'yobga chiqarishda ham yangi imkoniyatlar ochishi kutilmoqda.

Bu ayni muddao bo'ladi. Chunki amaliyotda xotin-qizlarning barcha sohalarda yaxshi natija ko'rsata olishi, ayniqsa, biznesda yuqori ko'rsatkichlarni qayd etishiga keyingi yillarda guvoh bo'laymiz. Afsuski, yillar davomida dunyo jamiyatida ayollarning o'rni haqidagi an'anaviy qarashlar ko'pincha ularning tadbirkorlik faoliyati va iqtisodiy hayotda ishtirok etish imkoniyatlarini cheklab qo'ygan. Ayollar o'z korxonalarini uchun kredit va moliyaviy yordam olishda qiyinchiliklarga duch kelgan. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, xotin-qizlarning 20 foizdan kamrog'i bank xizmatlaridan foydalana olgan.



Ammo bu tendensiya jahon mamlakatlari qatori O'zbekistonda ham tubdan o'zgardi. Bugun xotin-qizlarga nafaqat jamiyatning teng huquqli vakili, balki barcha sohalarda yuqori natija ko'rsata oladigan kadr sifatida qaralyapti. Bundan ayollarning o'zi ham unumli foydalana boshladi. Tezda jamiyatda o'z o'rini topishga kirishib ketdi. Buni raqamlardagi o'sish ko'rsatkichlarida ham ko'rish mumkin. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda ayollarning ishchi kuchidagi ulushi 2000-yildagi 32 foizdan 2021-yilga kelib, qariyb 47 foizgacha ko'tarilgan. O'tgan yili Jahon banki indeksida O'zbekiston gender tenglik sohasida eng tez rivojlanayotgan 5 mamlakat qatorida qayd etildi. Ochiq gender ma'lumotlar indeksida eng yaxshi 20 davlat qatoridan joy oldi. Parlamentlararo ittifoq tomonidan yuritiladigan "Parlamentdagi ayollar" reytingida O'zbekiston 193 mamlakat orasida 36-o'ringa ko'tarildi.

Bu raqamlarni uzoq davom ettirish mumkin. Biroq, asosiysi, natijalar xotin-qizlarning hayoti, turmush tarzi, faoliyati, kelajakka ishonchida aks etyapti. Jamiyatda ishbilanmon ayollar qatlami shakllandi. Bunday ayollar eng ilg'or, tashabbuskor, yangi g'oyalarga to'lgan, mamlakat iqtisodiyoti rivoji va aholi bandligini ta'minlashda faol ishtirok etayotgan qatlamga aylandi. Shunga yarasha ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, yangi imkoniyatlar yaratib berishga e'tibor qaratilyapti. Natijada bugun yurtimizda umumiy 527 mingdan ziyod

tadbirkorlik subyektingining qariyb 217 mingdan ortig'iga xotin-qizlar rahbarlik qilaypti. Ular tomonidan yaratilgan ishchi o'rnlari soni esa 800 mingdan oshadi.

Endi tadbirkor xotin-qizlar nafaqat mahalliy, balki xalqaro maydondagi o'rini mustahkamlashga intilmoqda. Ishbilanmon ayollardan iborat delegatsiyamiz O'mon Sultonligida biznes-forumda ishtirok etish orqali bu borada yana bir muhim qadam tashladi. Ikki davlat ishbilanmonlari o'rtasida ta'lim, turizm, savdo, tibbiyot, qurilish sohalarini rivojlantirishga qaratilgan hamkorlik kelishuvlari imzolandi. Jumladan, Masqat shahridagi "Mall of Oman" savdo majmuasida yurtimizdagi "Miss Lighting" MCHJ korxonasi uchun shourum-savdo do'koni tashkil etish hamda bir yil bepul foydalanish bo'yicha kelishuvga erishildi. "Dilfuza Design" korxonasi rahbari esa ijara haqi uchun maxsus imtiyozli shartlar asosida O'monda o'zbek dizaynerlarining liboslari shourumini tashkil etadigan bo'ldi. "Miss Lighting" MCHJ rahbari O'mondagi "Alsumood" va "Real Estate Development" qurilish kompaniyalariga qandil yetkazib berish uchun buyurtma oldi. "Mediva" MCHJ rahbari O'mon Sultonligida franshiza asosida klinikla filiali ochish bo'yicha muzokaralar olib boryapti. Shuningdek, mahalliy "Felix Tour" korxonasi hamda O'monning "Bahwan Travel Agencies LLC" kompaniyasi O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish bo'yicha hamkorlik qiladi.

Umuman, amaliy safar manfaatli kelishuvlarga boy bo'ldi. Do'stlik munosabatlari yangi hamkorlikni o'rnatish orqali ikki davlat iqtisodiyotiga sezilarli hissa qo'shadi va bu aloqalar davomiydir. Joriy yilning ikkinchi choragida esa O'mon tadbirkor ayollarining Toshkentga biznes missiyasini tashkil etishi va uning doirasida biznes-forum o'tkazilishi kutilmoqda.

Arabiston yarimorolining janubi-sharqida joylashgan O'mon Sultonligi O'zbekistonning ishonchli sheriklaridan biriga aylanganiga ko'p bo'lgan. Ammo bu munosabatlar keyingi yillarda kelib faollashdi, yangi bosqichga chiqmoqda. O'zaro savdo hajmi o'sib boryapti. 2020-yilda bu taxminan 100 million dollarni tashkil etgan. Bu ko'rsatkichni yanada oshirish ko'zlangan. O'mon yurtimiz uchun, ayniqsa, energetika, qishloq xo'jaligi va turizm kabi sohalarda xorijiy investitsiyalar manbavi bo'lishi kutilmoqda. Iqtisodiy aloqalar rivojida xotin-qizlar ishtirokini oshirishga ham katta e'tibor qaratilyapti.

O'mon Sultonligida bo'lgan o'zbekistonlik tadbirkor ayollar bunga bevosita guvoh bo'ldi. Ular yangi biznes hamkorlar topib, manfaatli kelishuvlarga erishganidan mamnun.

Ilk biznes-forum taassurotlari

**Dilfuza SHAMSUTDINOVA,
Toshkent viloyatidagi
"Dilfuza dizayn" oilaviy
korxonasi rahbari:**

— O'zbek ishbilanmon ayollari O'mon Sultonligida yuqori hurmat bilan kutib olindi. Bir necha kun davomida mamlakatning an'analari, iqtisodiyot va boshqa sohalardagi yutuqlari bilan tanishdik. O'mon o'z qadriyatlarini va milliyatini saqlagan holda rivojlangan davlat. Tabiati va xalqi bizda juda yaxshi taassurot qoldirdi. Muloqotga va o'zaro tajriba almashishga ochiq odamlar. Ayniqsa, o'monlik ayollarning biznesni yaxshi tushunishi, bu sohada salmoqli faoliyat yuritib, mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli hissa qo'shayotganiga guvoh bo'ldik.



O'zbekiston — O'mon birinchi ayollar biznes-forumi esa juda qiziqarli o'tdi. Ochiq'i,

Korxonamizda yiliga 360 mingta mahsulot ishlab chiqarilib, to'liq eksport qilinadi. Rossiya, Belarus, Moldova — asosiy hamkorlarimiz. Eksport qiymati esa 750 ming dollardan ziyod. Korxonada 120 kishi ish bilan ta'minlangan.

Ayollarimiz barchani lol qoldirdi!

**Zeboxon MO'MINOVA,
Toshkent shahridagi "Nova
school" nodavlat ta'lim
muassasasi rahbari:**

— O'zbek ayollari dunyoning qaysi burchagida bo'lmasin, qo'zalligi, shijoati, g'ayrati bilan boshqalarni hayratga sola olishiga yana bir bor amin bo'ldim. O'mon Sultonligida o'tgan ayollar biznes-forumida mana shunday 30 ga yaqin muvaffaqiyatli tadbirkor xonimimiz faol ishtirok etdi. Shunda ko'pchilik bizga "O'zbek ayollarining burchalik go'zalligi siri nimada?" degan savol bilan murojaat qildi. O'monlik ayollar esa "O'zbek ayollarini yaqindan ko'rib, go'zalligi va latofatidan hayratlandik!" deya iltifot ham qildi. Shu bilan birga, ayollarimiz nafaqat go'zalligi, balki ishbilanmonligi bilan ham xorijliklarni lol qoldirdi. Hatto O'mon Sultonligida "O'zbekistondan 30 ga yaqin millioner ayol kelib, katta loyihalar bo'yicha shartnomalar tuzdi" degan mish-mish ham tarqaldi.

Bu o'rinda borganimiz xalq orasida ovoza bo'lganini nazarda tutaymiz. Aslida, o'monliklar bilan qator manfaatli kelishuvlar



tuzishga erishdik. Faoliyatim bevosita ta'lim tizimi bilan bog'liq bo'lgani bois, ko'proq shu yo'nalishda ma'lumotlar to'plash, soha vakillari bilan suhbatlashishga harakat qildim. Sultonlikdagi 3 ta ta'lim muassasasi bilan tajriba almashib, mamlakatimizning O'mondagi elchisi boshchiligidagi ajoyib loyihani amalga oshirish rejasini tuzdik. Kelishuvimizning asosiy maqsadi davlatimiz strategik maqsadlarining kichik bo'lagi, desam ham bo'ladi. Bu ikki yurt o'rtasida siyosiy, iqtisodiy va do'stona munosabatlarni mustahkamlab, ta'lim muassasalari o'rtasida o'quv dasturlari va

mamlakatning turli sohadagi imkoniyatlari bilan tanishish, yangi hamkorlar topish, o'zaro muloqot orqali tajriba almashishda bu tadbir katta o'rin tutadi. Tadbirkor ayollar shunchaki ko'rinish, gaplashmadi, balki haqiqiy biznes xonimlar sifatida yangi hamkorlik aloqalari bo'yicha muzokaralar olib bordi. Albatta, ikki tomon uchun manfaatli kelishuvlarga erishildi.

Korxonamiz 2015-yildan buyon tekstil sohasida faoliyat yuritib kelayotgani bois, ko'proq shu yo'nalishdagi tadbirkorlar bilan muloqotda bo'ldik. O'z navbatida, ularni ishimiz bilan tanishtirdik. Korxonamizda yiliga 360 mingta mahsulot ishlab chiqarilib, to'liq eksport qilinadi. Rossiya, Belarus, Moldova — asosiy hamkorlarimiz. Eksport qiymati esa 750 ming dollardan ziyod. Korxonada 120 kishi ish bilan ta'minlangan.

Mahsulotlarimiz to'liq eksport qilinishi sababli boshqa davlatlar bilan hamkorlik biz uchun doim muhim. Ayniqsa, eksport geografiasini kengaytirish ishlab chiqarish quvvatini oshirish, daromadni ko'paytirish va qo'shimcha ish o'rnlari yaratishga xizmat qiladi. O'mon davlati bozorini o'rganiganimizda, asosan, Hindiston va Pokiston tekstil mahsulotlari bilan to'ldirilganiga guvoh bo'ldik. Uchrashuvlar davomida ularga sifati va tabiiy o'zbek tekstil mahsulotlarini taklif etildik. Mezbolar arzon va sifati mahsulotlarimizni ko'rgach, hamkorlikka qiziqish bildirdi. Forum doirasida Masqat shahrida korxonamizning savdo uyini ochishga kelishdik. Ayni paytda kelishuv bo'yicha amaliy harakatlar boshlangan.

talabalar almashinuvi hisobiga zamonaviy, yangi eksperimental o'quv modelini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Ta'limda tajriba almashinuvi juda muhim. Buni faoliyatim misolida yaxshi bilaman. Men rahbarlik qilayotgan "Nova school" nodavlat ta'lim muassasasi 2013-yilda bolalarni erta rivojlantirish markazi sifatida ish boshlagan. 2015-yilda ushbu ta'lim muassasasi asosida ikki tili tizimga ega bolalar bog'chasi tashkil etildi. 2017-yilda esa ishimizni kengaytirib, xususiy maktab ochishga muvaffaq bo'ldik. Faoliyatim orqali xalqaro ta'lim tizimi va Britaniya ta'lim dasturlarining elementlarini milliy dasturga integratsiya qilish orqali bolalar ta'limini rivojlantirish, ularga sifati bilim berish, chet tillarni samarali o'qitish, kelajak avlodni zamonaviy dunyoga kuchli eruditsiya va yuqori emotsional intellektga ega, mukammal shaxs sifatida kamolga yetkazishni maqsad qilganman. Xalqaro hamkorlik aloqalari esa bu borada yangi tajribalar o'tirish, ta'limga zamonaviy yondashuvni joriy etishga xizmat qiladi.

**Iroda TOSHMATOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri**

Agrotarmoq

Oxirgi yillarda paxta xomashyosi to'liq o'zimizda qayta ishlanib, tikilgan tayyor kiyim va buyumlar dunyo bozorida tobora xaridorgir bo'lib borayotganini inobatga olsak, ushbu ekinning ahamiyati yanada ortadi. Shu ma'noda, paxtachilikda yangicha yondashuvlar tobora faollashib borayotgani bejiz emas.

Bu borada "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham keng ko'lamli vazifalar belgilab berilgan. Resurs tejaydigan innovatsion texnologiyalar asosida mahsulot tannarxini 30-35 foiz tushirish, suv tejamkor texnologiyalar joriy qilingan maydonlarni 1 million 500 ming gektarga yetkazish, sifati va serhosil navlarni qo'llash shular jumlasidan. Shundan kelib chiqib, paxta hosildorligini oshirish bo'yicha yangi tizimni joriy qilish, uni yetishtirishda ilm va innovatsiyalarga asoslangan urug'chilik, sav tanlash, yerga ishlav berish, o'g'itlash, sug'orish ishlarini yo'lga qo'yish orqali paxta-to'qimachilik sohasida eksport hajmi hamda daromadni oshirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Bunda davlatimiz rahbarining 2022-yil 7-iyuldagi "Paxta hosildorligini oshirish, paxta yetishtirishda ilm va innovatsiyalarni joriy qilishning qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

muhim ahamiyat kasb etyapti. Chunki qarorga asosan, Prezident huzurida Paxtachilik kengashi tashkil qilinib, "Paxtasanoat ilmiy markazi" aksiyadorlik jamiyati kengashning ilmiy-tadqiqot organi etib belgilandi.

"Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ negizida Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi huzuridagi Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti faoliyati yo'lga qo'yildi. Bu sohadaqi ishlarga yangicha sur'at bag'ishladi, desak ayni haqiqat.

Xo'sh, bu o'zgarishlar sohaga nima beradi? Keling, buni o'zim faoliyat yuritayotgan institut misolida tahlil qilib ko'rsak. Birinchi navbatda, institut nima ish bilan shug'ullanadi, degan savolga javob bersak. Institut, avvalo, respublikamizda rayonlashtirilgan va istiqbolli tolali ekinlar navlari sifat ko'rsatkichlarini aniqlaydi. Sohadaqi ilmiy tadqiqotlarni, shuningdek, tolali ekinlarning barcha turlarini o'rganish va ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradi. G'o'zaning o'rta tolali, ingichkila tolali va dag'al tolali (kanop, zig'ir) ekinlar hosildorligi bo'yicha tajriba-sinovlarni amalga oshiradi.



Bundan tashqari, paxta-to'qimachilik klasterlari va fermer xo'jaliklari tomonidan xorijdan keltirilgan yoki mahalliy navlar urug'lik chigitlarining sifat ko'rsatkichlari bo'yicha laboratoriya tahlillarini o'tkazadi. Tolali ekinlarni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash, tozalash hamda urug'lik tayyorlash

uchun zamonaviy texnika va texnologiyalar, energotejamkor mashina, asbob-uskunalarining tajriba-sanoat namunalarini yaratadi.

Bugungi kunda Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti yurtimiz paxta-to'qimachilik klasterlari tarkibidagi paxta tozalash korxonalariga qator yo'nalishlarda xizmat ko'rsatib kelmoqda. Paxta

xomashyosining tashqi ko'rinish namunalarini (etalonlari) tayyorlash, paxtani qabul qilishda laboratoriyalar uchun zarur bo'lgan o'lchash, sinash, tahlil qilish uskuna va jihozlarni ishlab chiqarish shular sirasiga kiradi.

2024-yilning ikkinchi yarim yilligida institut olimlari tomonidan ilmiy faoliyatiga oid davlat dasturlari doirasida umumiy qiymati 2 milliard 500 million so'mlik 2 ta innovatsion loyiha Paxtachilik kengashi orqali tanlovga topshirildi. Bundan tashqari, Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markaziga 6 ta innovatsion loyiha yuborildi.

Mahalliy va xalqaro ahamiyatga ega hamkorliklar, albatta, o'z samarasini bermoqda. Gap shundaki, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali "Yangi, istiqbolli va rayonlashtirilgan navlar sanoatbopligini o'rganish asosida ulardan olinadigan urug'lik chigitlarni tayyorlovchi texnologik uskunalarining sanoat namunasi ishlab chiqish" loyihasi asosida universal urug'lik chigit dorilash mashinasining tajriba-sanoat namunasi tayyorlandi. Ushbu mashina urug'lik chigitni 95 foizgacha dorilaydi, suspenziyani 2,5 foizgacha tejaydi.

**Tohir QULIYEV,
Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot
instituti direktori**

Davlatimiz rahbarining Malayziyaga rasmiy tashrifi doirasida tashkil etilgan uchrashuv, tadbir va forumlarda har bir soha mutasallari, mutaxassislari va olimlar ishtirok etdi. Bu ikki davlat hamkorligidagi loyihalar ko'lamini samaradorligi ortib borayotganini



AYOL SADOQATI

Hali tarix kitoblarga muhrlanmasdan — oʻtmish saboqlari xalq ogʻzaki ijodi orqali avlodlarga yetkaziladigan davrlarda ham ayol moʻtabar va mukarram zot sifatida qadrlangan. Davlatchiligimizda oʻz oʻrniga ega boʻlgan Elbilga xotun, Oybarchin, Toʻmaris kabilar bunga yaqqol misol. Ulardan soʻng Saroymulkxonim, Gavharshodbegim, Mulkat ogʻobegim, Qutlugʻ Nigorxonim, Gulbadanbegim, Nurjahonbegim, Mumtozmahalbegim, Jahonorobegim, Zebunnisobegim, Mehr sultonxonim, Oyoqshsha bibi, Bibi podshoh bibi, Nodirai Davron, Uvaysiy (Jahon otin), Dilshod otin (Barno), Muazzamxon Mirsaid qizi, Samar Bonu, Anbar otin, Nozimaxonim, Manzurabonu... yana yaqin kelaversak, Zulfiyaxonim, Suyimaxonim, Halimaxonim, Oydinxonim, yana qanchadan qancha shoira begimlar, soʻz sultonlari, goʻzallik oshuftalari bisyor. Astoydil sanayman desangiz, koʻhna tariximizning badiiy kamolotida kamarbasta ayollar safini aytib tugatib boʻlmaydi. Bunday muazzam salтанat qaysi xalqda bor!

Bibixonimni eslang. Shavkatli Amir Temur bir jangda yollanma askarlarga beradigan puli qolmagach, Bibixonimga ishonchli odamlarini yuborib, mablagʻ yuborishni tayinlaydi. Bibixonim tom maʼnoda donishmand ayol emasmi, “Aqchangiz tugagan ersa, siyosatingiz ham tugadimi, amirim?!” deya xat bitadi. Oqilalikni qarang! Bu shunchaki xabar yoki xat emas, katta sheʼr, katta asar hamdir. Chunki shu ikki enli xat qudratli Sohbiqironga dalda boʻladi, ilhom beradi. Shu tariqa Amir Temur suyaklarga muhr bosib, vaqtinchalik pulni muomalaga kiritib, yollanma askarlarni saqlab qolgan ekan.

Sadoqat malikasi Zulfiyaxonimning hayoti ham ibrat maktabidir.

Millat onalarining shonli timsoli sanalgan shoira adabiyot maydoniga kirib kelishini munis onasining hikmatlari bilan bogʻlaydi. “Onamning qanchadan qancha goʻshiq, va afsonalarni, dostonlarni va ertaklarni bilishiga aqlim bovar qilmasdi. Bu sehrli afsona va dostonlar bizga behiyo huzur bagʻishlar, oʻziga ram qilib olar, har safar yangi jilva kasb etardi. Shunga aminmanki, moʻjizalar yaratishga qodir, jahonni koʻzga keng ochuvchi, insonni goʻzallik sari yetaklovchi soʻzga shaydolik hissini mening qalbimda ostonaga hatlab koʻchaga chiqmagan oddiy ayol — onam uygʻotgan”, deya taʼriflaydi Zulfiya opa.

Hamid Olimjon bilan Zulfiyaxonimning nikoh toʻyi oʻtgach, shoirning onasi Komila aya toʻrt farzandini olib, oʻz yurtiga — Jizzaxga qaytish taraddudini koʻradi. “Onajon, biz bilan birga qolasiz, ketmaysiz, hammamiz birga yashaymiz”, deb Zulfiyaxonim qaynonasi va shoirming uka-singillarini Toshkentda olib qoladi. Komila aya Zulfiyaxonimga shoir vafotidan keyin umrining oxirigacha — azobli, hijron kunlarida onalik mehri bilan togʻdek qalqon koʻladi. Zulfiyaxonimning onasi bergan tarbiya, taʼlim va yuksak insoniyat fazilati shoiraning hayotiga shamchiroq boʻlib, umr yoʻlini yoritib boradi.

Yozuvchilar uyushmasining yoʻllanmasiga koʻra, Jizzaxda oʻchilgan Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabida shoira tavalludining 110 yilligi munosabati bilan oʻtkazilgan tadbirda ishtirok etdik. Maktabning 14 oʻquvchisi ijodidan saralangan sheʼriy toʻplamlardagi misralar koʻzimizga quvonch bagʻishladi. Shuningdek 20 oʻquvchining

2025-yil 6-mart, 46-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz

“

Bolam, — derdi onam, — hamisha kiyimim, xonadoning, bolalarining ust-boshi toza, koʻngling ozoda boʻlsin. Hamma baraka ana shunda. Hech qachon uyingdagi gapni bizga olib kelma. Qaynonangni menga yaxshi koʻrsat. Shunda tinch yashayman. Opa-singling, aka-ukang bilan inoq boʻl. Shunda bolalarining uzoqlashib ketmaydi. Bir parcha yering boʻlsa ham gul, daraxt ekin.

MEHRI ILA BESHIKNI, DUOSI BILAN DUNYONI TEBRATAYOTGAN AYOL



Sayyora TOʻYCHIYEVA,
Oʻzbekiston davlat sanʼat va madaniyat instituti professori,
“Moʻtabar ayol” koʻkrak nishoni sovrindori

xalqaro, 50 oʻquvchining respublika nashrlarida eʼlon qilingan ijodiy ishlarini oʻqib, Zulfiya ijodiga katta qiziqishni koʻrib, adabiyotning, soʻzning bolalar talqinidagi jozibasiga maftun boʻldik.

11-sinf oʻquvchisi Mohira Diniqulovani “Yurakka maktab” nomli sheʼriy kitobi adabiyotga oshufta qizning dil izhorlari sifatida sheʼr muxlislariga tanitdi. 165 oʻquvchining qator xalqaro sertifikatlarni qoʻlga kiritgani, xorijiy tillarga qiziqishi samarasi oʻlaroq qator mitti tarjimalarni oʻqib havasimiz keldi.

OʻZBEKNING MUNOJATI

Sanʼat — koʻngilning bebaho mulki, inson hayotining ziynati. Faqat sanʼat hamda sportgina har bir davlatni jahon sahnasida tez va keng



targʻib qila oladi. Chunki bu ikki yoʻnalish tarjima qil olmaydi.

Yangi Oʻzbekistonning sanʼat va madaniyat sohasidagi katta islohotlari oʻzlikni, milliylikni anglash mezonini sanalmish maqomini kelgusi avlodga bezavol yetkazishga xizmat qilmoqda. Oʻzbekistonning sanʼat va madaniyat sohasidagi katta islohotlari oʻzbek maqom sanʼati dovruqʻini dunyoga voymoqda. Shashmaqomni ixtisropani mamlakatlarida musiqa mutaxassislari, yessomdirlari ham turli konsert va festivallarda tinglab, baholab kelayotgani quvonarli. Shunday bir paytda oʻzbek milliy sanʼatida oʻziga xos maqom maktabini yaratgan Oʻzbekiston Qahramoni, xalq artisti, senator Munajat Yoʻlchiyevaning Fransiya, Buyuk Britaniya, AQSH, Yaponiya, Belgiya, Germaniya kabi

qildi. Shunda Andijon shahridan togʻam Abdullajon Mavlonov kelib, ota-onamni, akalarni koʻndirgan. Isteʼdodni qoʻllab-quvvatlash muhimligini oʻshanda bilganman. Nihoyat Toshkent davlat konservatoriya sinfining Sharq musiqasi kafedrasini oʻqib yul xonandalik boʻlimiga oʻqishga qabul qilindim. Talaba boʻlganimda hammadan koʻp onajonim suyardi. Chunki sanʼatkor boʻlish armonim ushaldi, oʻrnimga sen qoʻshiqchi boʻlasan, eng sara qoʻshiqlarni kuylaysan, Munajat qizim deb alqadi. Ota-onamning duosini olib, Toshkentga joʻnadim.

Shundan beri qancha yil oʻtdi. Onaning duosi, hikmatlari farzand uchun oltindan qimmat ekanini bugun yanada chuqur anglayapman.

Suhbatdoshimning dil izhorlarini tinglab, 80 yoshli buvimning “Munajatxonni dunyoga

oʻnlab mamlakatlarda anʼanaviy mumtoz qoʻshiqlardan iborat konsert dasturlari taqdim etayotgani eʼtiborga molik. Zero, bugun oʻzbek ayoli, sanʼatkori timsolida dunyo ahli xalqimizning qoyilmaqom sanʼatini tanimoqda!

Oʻzbek nomodiy madaniyatining qator elementlari — Shashmaqom, Boysun tumanining madaniy makoni, katta ashula, askiya, Navroʻz, milliy miniatyura sanʼati, Margʻilning atlas va adras ishlab chiqarish texnologiyasi, oʻzbek palov madaniyati va anʼanalari, Xorazm lagzisi, Oʻzbekistonning ipakchilik va ipak ishlab chiqarish anʼanasi, Nasriddin afandi haqidagi latifalar — jami 11 element UNESCOning nomodiy madaniy merosi reprezentativ roʻyxatidan joy olgani haqiqat.

Munajatxon opa nihoyatda kamtar va samimiy inson, milliy qoʻshiqchilik sanʼatimizga qoʻshgan katta hissasini, albatta, onasi Muborak aya Yoʻlchiyevaning katta fidoyiligi tufayli deb biladi.

— Andijonning Buloqboshi tumanidagi 21-maktabni bitirganman, — deydi Munajat opa. — Hali oʻquvchilik davrimdayoq sanʼatga katta qiziqishimni birinchi boʻlib onam qoʻllab-quvvatladi. Rahmatli onamning nihoyatda sohir, barqut ovozi bor edi. Kichkinaimda meni ham dalaga — ketmon chopiqqa olib chiqardi. Onam tengqurlari “Muborakxon, siz chopiq qilming, ashula aytib tursangiz boʻldi. Biz oʻzimiz ishini qilaveramiz”, derdi hazillashib. Onam jarangdor ovozda dala boʻylab “Tanovar”, “Sumbula”, “Yor-yor” kabi qator xalq qoʻshiqlarini kuylaganida, ishonasizmi, xayolimda butun tabiat quloq solayotgandek tuyulardi. Sanʼatga ixlosim oʻsha vaqtlarda koʻz ochgan boʻlsa kerak.

Ota-onam 6 qiz, 2 oʻgʻilni voyaga yetkazdi. Otam nihoyatda sanʼatsevar, ochiqqoʻl, qatʼiyatli inson edi. Undan menga gʻayrat shijoat oʻtgan. Onam bagʻrikeng, nihoyatda pazanda ayol edi. Onamdan sanʼatsevarlik oʻtgan boʻlsa kerak. Maktabni bitirib, hijjatlarimni oliyogʻ uchun tayyorlab yurganimda ota-onam, akalarni sanʼat oliyogʻiga kirishimga qarshilik

“

Qadimdan bir yaxshi gap keladi: bizga yaxshi onalarni bering, shunda biz yaxshi odamlar boʻlib yetishamiz. Millatning birinchi tarbiyachisi, birinchi murabbiyi onalar boʻlgan. Ona — qoʻrgʻon, xonadonga fayzu ziynat deymiz. Men ham “Moʻtabar ayol” mukofoti bilan taqdirlanganlar qatorida salkam qirq yillik faoliyatimda onamning hikmati bilan ulgʻaydim. Oddiygina yaxshi munosabat, odamlarga yaxshilik qilish uchun vaqt topish onam umrining mazmuni edi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM OʻQISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



keltirib, tarbiyalagan onaning ham armoni bormikan-a?!” degani yodinga keladi.

Munajat Yoʻlchiyeva qator shogirdlarning ustoz, milliy qoʻshiqchilgimiz itifoxi, mehribon ona. Qisqasi, sanʼatimizning fidoyi targʻibotchisi. U kabi fidoyilar bor ekan, sanʼatimiz dovruqʻi dunyoga taralaveradi.

MOʻTABARLIK SAODATI

2018-yilda hukumat qarori bilan “Moʻtabar ayol” koʻkrak nishoni taʼsis etilgan edi. Bugungacha 1476 ayol ushbu mukofot bilan taqdirlandi. Bu yil 331 nomzodning oilasiga bayram quvonchi qoʻshaloq kirib keldi. Ularga mukofotni Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri oʻrinbosari, Oila va xotin-qizlar qoʻmitasi raisi Zulayho Mahkamova topshirdi. Davlat va jamiyat hayotida faolligi, samarali mehnati, namunali xulqi bilan milliy qadriyatlarimizni keng targʻib etishda ibratli faoliyat koʻrsatgani uchun taqdirlanganlar orasida Oʻzbekiston xalq artisti, sevimli sanʼatkorimiz Zamira Suyunova, atoqli shoiralar Qutlibeka Rahimboyeva, Munavvara Usmonova, hunarmand Saodat Yuliboyeva, Toshkent metropoliteni xodimi Gulchehra Isfandiyyorova, “Oʻztemiryoʻl” mashinisti Gulchehra Hamidova, taniqli pillakor Mahfuza Tolipova, harbiy qism xodimasi Oydinniso Innatullaeva ham bor edi. Ularning yurak soʻzlaridan islohotlarga daxldorlik, elga kamarbastalik izhorlarini anglash mumkin.

Hayratlanarlisi shuki, har bir opa-singlimizning ibratli hayot yoʻlida onajonlarning alohida oʻrni bor.

Oʻzbekiston tarixi davlat muzeyi direktori, tarix fanlari doktori Jannatxon Ismoilova “Moʻtabar ayol” koʻkrak nishonini faxr bilan taʼriflab, onasini eslaydi, umr yoʻlini sarhisob qiladi. “Toshkentning Sebzor dahasida ziyoli oilada dunyoga kelganman. Otam Hamid Ziyoyevning XIX-XX asr jahon hayoti haqidagi taqdirlari, Sibirdagi oʻzbeklar hayoti haqidagi tahlillarni koʻpchilik yaxshi biladi. Uning yetuk olim boʻlishida onajonimiz — Saodat ayaning xizmati begiyos. Onamizning qoʻlida doimo kitob koʻrardik. U juda koʻp mutolaa qilardi. Shundan boʻlsa kerak, ukam Azamat Ziyoyev, singlim Donoxon Ziyoyeva va men — uchalamiz ham

— Ona qachon faxr-u itifoxga toʻladi? Qachonki, farzandi el-u yurt ichida ota-onasiga rahmat olib kelsa, — deydi Dilorom Keldiyorova. — Diyoira qizimni qoʻllab-quvvatlagan, shaxsan tabriklagan Prezidentimizga, aziz xalqimizga rahmat aytishga imkon boʻldi. Diyoira qizim bolaligidan sportga qiziqdi. Gʻoliblik sari yoʻl boshlagan ilk qadamlaridayoq muvaffaqiyatlaridan quvondim, sinovli kunlarida togʻdek suyaningʻi boʻlishga urindim. Shukr, shuncha mehnati, urinishi va harakati bejiz ketmadi. Bolam Oʻzbekiston bayrogʻini dunyoga yana bir bor tanitdi.

fan doktori, professor darajasiga yetdik. Ota-onamizning duosida faqat bir nur — kitobga, mutolaa mehnati koʻrdik. Oʻzim 30 yilga yaqin shaharlar tarixi, xususan, Toshkent shahri tarixi, xalq madaniy, amaliy sanʼati, muzeysunoslik sohasi boʻyicha qator shogirdlarga rahbarlik qilayapman. Oʻzbek muzeysunosligi maktabini yaratish va ilmiy tadqiqot natijasini dunyo muzeysunoslik tadqiqotlariga qoʻshish niyatida faoliyat olib boryapman. Besh farzandim — Nigora, Malika, Aziza, Charos va Ismoiljonni onam aytganidek, el-yurtga fidoyi qilib tarbiyaladim, birdan-bir niyatim onamga oʻxshagim keladi”, deydi Jannatxon Ismoilova.

— Oʻgʻlim Vyacheslav Makarov mamlakatimiz sarhadlarini himoya qilayotib vafot etgan. Bugun oʻgʻlimning doʻstlari meni “Moʻtabar ayol” mukofoti bilan tabriklamogʻda. Bolam moʻtabar Vatan, aziz Oʻzbekiston tinchligi yoʻlida jonini fido qildi, shunday pahlavonni tarbiyalanganimdan faxrlanaman, — deydi mukofotlangan ona Tatyana Makarova.

Yurtimizning yana bir pahlavon oʻgʻloni — Bahodir Jalolovning onasi Sabohat Jalolova dil izhorlarini bunday ifoda etadi:

— Bedor onalarning duosi asrasin aziz vatanimizni. Bolalarimiz shu yurt obroʻ-eʼtiborini dunyoga tanitmoqda. Bahodirim har gal yurtimizga katta gʻalabalar bilan qaytgandira Oʻzbekiston shaʼnini jahon arenalarida himoya qilishga loyiq farzand oʻstirganimdan boshim osmonga yetadi.

Bu onaning faxr-iftixordan koʻzi porlaydi. Onalarini moʻtabar aylagan Bahodirlar koʻpayaversin deya niyat qilasiz. Shunday oʻylar bilan oʻzbekning afsonaviy qahramoni Diyoira Keldiyorovaning onasi Dilorom Keldiyorovaga yuzlanamiz.

— Ona qachon faxr-u itifoxga toʻladi? Qachonki, farzandi el-u yurt ichida ota-onasiga rahmat olib kelsa, — deydi Dilorom Keldiyorova. — Diyoira qizimni qoʻllab-quvvatlagan, shaxsan tabriklagan Prezidentimizga, aziz xalqimizga rahmat aytishga imkon boʻldi. Diyoira qizim bolaligidan sportga qiziqdi. Gʻoliblik sari yoʻl boshlagan ilk qadamlaridayoq muvaffaqiyatlaridan quvondim, sinovli kunlarida togʻdek suyaningʻi boʻlishga urindim. Shukr, shuncha mehnati, urinishi va harakati bejiz ketmadi. Bolam Oʻzbekiston bayrogʻini dunyoga yana bir bor tanitdi.

Chaqmoqsoʻz shoira, taniqli ijodkor Qutlibeka Rahimboyevaning koʻzida quvonch. “Turkmanistonda tugʻildim, Fargʻonada oliy taʼlim oldim, qirq yil ilgari ustozim Zulfiyaxonimning taklifi bilan “Saodat” jurnaliga ishga keldim. Oʻzbekistonning olis-yaqin hududida xizmat qilayotgan muhtaram opa-singillarimiz haqida yuzlab maqola yozdim, ikki qanotim — qizim Orzuning, oʻgʻlim Najotning muvaffaqiyatidan baxtiyorman. Oʻzbek adabiyotining jonkuyari xizmatidaman. Bugungi mukofot Prezidentimning ishonchi, xalqimning mukofotidir”.

Har bir mukofotlangan opamizning yoniq tilaklari, munavvar niyatlari bor. Zotan, davlat boshqaruvida erkaklar bilan teppa-teng xizmat qilayotgan, qator-qator farzandlarini elu yurt xizmatiga kamarbasta qilib qoʻygan onaxonlarni, mukofotini suratga tushirib bolalariga koʻrsatib yayrayotgan sovrindorlarni kuzatib, dunyoda bolasidan aziz, mehnatidan aziz, roʻzgʻoridan aziz neʼmat yoʻqligiga shukrona qilayotgan ayollarimizga “Bayram muborak, eʼtirof muborak”, degisi keladi kishining.

ONAMNING HIKMATLARI

Biz bugun elu xalq eʼzozlagan opalarimiz haqida mehr bilan soʻzladik. Har bir taniqli, isteʼdodli, el tanigan insonning ortida kichikkinna yelkasida dunyolarni koʻtarib yurgan onajonlari taʼrifini keltirdik, soʻzning muxtasar qismida yana ozgina aytarimiz bor.

Qadimdan bir yaxshi gap keladi: bizga yaxshi onalarni bering, shunda biz yaxshi odamlar boʻlib yetishamiz. Millatning birinchi tarbiyachisi, birinchi murabbiyi onalar boʻlgan. Ona — qoʻrgʻon, xonadonga fayzu ziynat deymiz. Men ham “Moʻtabar ayol” mukofoti bilan taqdirlanganlar qatorida salkam qirq yillik faoliyatimda onamning hikmati bilan ulgʻaydim. Oddiygina yaxshi munosabat, odamlarga yaxshilik qilish uchun vaqt topish onam umrining mazmuni edi.

“Bolam, — derdi onam, — hamisha kiyimim, xonadoning, bolalarining ust-boshi toza, koʻngling ozoda boʻlsin. Hamma baraka ana shunda. Hech qachon uyingdagi gapni bizga olib kelma. Qaynonangni menga yaxshi koʻrsat. Shunda tinch yashayman. Opa-singling, aka-ukang bilan inoq boʻl. Shunda bolalarining uzoqlashib ketmaydi. Bir parcha yering boʻlsa ham gul, daraxt ekin.

Shoir bolam, nima yozsang, yurakdan yozgin, koʻngilning gapi koʻngilni obod qilar, yolgʻonni yozma, esingdan chiqmasin.

Qiz uzatsang, kuyovning izzatini qilgin. Kelin olsang, qizingdek koʻrgin. Birovning bolasi uyingda koʻkarsin, oʻzidan koʻpaysin. Har qanday yumushing boʻlsa ham bemorning, ehtiyojmandning, koʻngli ogʻ rigʻaning koʻnglini olishga shoshilgin. Bilasan, otangning gapi gap boʻlgan. Turmush oʻrtogʻingning gapini ikki qilma, qarindoshlarining hurmatini joyiga qoʻygʻin. Senga aytayotgan nasihatlarimning hammasiga umrim boʻyi rioya qilib yashadim. Shukronalarim uchun yaxshi kunlar koʻrdim. Shukronalik hayoting mazmuni boʻlsin, jon bolam”.

Qator-qator kitoblar, sheʼr-u dostonlar yozdim, ilmiy tadqiqotlar qilish uchun qanchadan qancha asarlar oʻqiddim, lekin onamning shukronalik haqidagi ikki ogʻiz hikmati barcha oʻqiganu yozganlarimdan aʼlo, benazir boʻlgidi.

Soʻz soʻlida aytarimiz shu: mehri bilan beshikni, duolari bilan dunyoni tebratgan, yangi Oʻzbekistondagi islohotlarni yuragi orqali oʻtkazayotgan, roʻzgʻori, farzandlari, oilasi, jamiyatning ogʻir, yengil tashvishlaridan faqat yaxshilik izlayotgan aziz ayollarimiz, bayram muborak boʻlsin!

“Yangi Oʻzbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:
Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qoʻlyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “SHARQ” NMAK masʼul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va eʼlonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz

Web-sayt: www.yuz.uz; (71) 233-47-05

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan roʻyxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-146.

Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qogʻoz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon koʻchasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Lutfulla Suvonov
Musahhih: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz koʻchasi, 85-uy

Oʻza yakuni — 00:20 Topshirildi — 00:25